

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
O'RTA MAXSUS KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI

**H.NURMATOV
N.YO'LDOSHEVA**

**O'ZBEK XALQ
MUSIQA IJODI**

Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma


G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent – 2007

85.313 (5Y)
N 87

Oly va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi ilmiy-metodik
birlashmalari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi
Kengash tomonidan nashrga tavsiya etilgan

T a q r i z c h i :

D.Qodirov — Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat
Pedagogika universiteti dotsenti



10 33499
391

ISBN 978-9943-03-029-9

© H.Nurmatov, N.Yo'ldosheva,
G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-
matbaa ijodiy uyi, 2007-y.

KIRISH

Xalq urf-odatlari va an'analari xalqimizning o'zi kabi umrboqiy, mehridaryodir. Yurtimizning har bir go'shasida o'ziga xos marosimlar, oilaviy-maishiy va mehnat bilan bog'liq an'analar, momolarning mehr bulog'idan qaynab chiqqan orombaxsh alla-yu olqishlar mavjud. Xalq marosimlari jo bo'lgan asriy qadriyatlar, ma'naviyat ko'zgusiga aylangan qanotli orzular, folklor ijrochilarining ko'p asrlar davomida yaratgan ijodiy faoliyati natijasida sayqallanib, barkamollahшиб kelgan qadimiy urf-odatlar va an'analarni o'rganish milliy qadriyatlarimiz mohiyatini yanada teranroq anglash, tushunish imkonini beradi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan milliy qadriyatlarni tiklash, unutilgan an'analarni keng ommalashtirish va ularni chuqur o'rganish uchun zarur sharoitlar yaratildi.

O'zbek xalqining urf-odat, an'ana va marosimlariga alohida e'tibor berilishi ma'naviy tiklanish jarayoni jadal kechayotgan hozirgi kunda muhim ahamiyatga ega. Chunki yoshlarni yangicha ruhda tarbiyalash, ularning ongiga milliy mustaqillik g'oyalarini chuqurroq singdirish, ajdodlarimiz yaratgan qadriyatlar mohiyatini keng targ'ib qilishda an'ana va marosimlar mohiyatini anglash, ularni chuqurroq tushuntirish milliy istiqlol g'oyasini keng omma orasiga yoyishning ta'sirchan vositalardan biri hisoblanadi.

O'zbek xalqi boy, o'ziga xos ko'p qatlam va seruslub musiqa merosiga ega. O'z tariximizni, milliy urf-odat va an'analaramizni, ma'naviy badiiy merosimizni atroflicha o'rganish va undan bahramand bo'lish har birimizning asosiy vazifalarimizdan biridir. Xalqimiz istiqlolga erishishi munosabati bilan azaliy qadriyatlarimizni tiklash, o'z tariximizni, milliy urf-odat va an'analaramizni atroflicha o'rganish imkoniyati vujudga keldi.

O'zbek xalq musiqa ijodi fani o'zbek xalqining an'analarga boy va badiiy barkamol musiqa ijodi namunalarini o'rgatadi hamda yosh avlodda o'tkir did, yuqori badiiy saviya va nafis tuyg'ularni shakllantiradi. Xalq kuy va qo'shiqlarini o'rganish jarayoni, ko'p

asrlik qadriyatlarimizning qayta tiklanishi muammosi yillar davomida o'rganib kelinmoqda, shu bois ham «O'zbek xalq musiqa ijodi» muhim fanlar qatoridan joy olgan. Ushbu o'quv qo'llanma mazmun-mundarijasi o'zbek musiqasining xalq ijodiyoti va og'zaki an'anadagi professional musiqa namunalarini qamrab oladi. Bunda xalq tomonidan yaratilgan kuy va aytimlar, ularning yaratilish tarixi, nisbatan murakkab janrlar, og'zaki an'anadagi professional musiqa tarixi va ko'p asrlar davomida rivojlanib kelayotgan o'zbek musiqa madaniyatiga muxtasar murojaat qilishga harakat qilindi.

O'quvchilarda milliy kuylarni idroklash, xalq musiqa janrlarining tuzilishi va ijro etilishi bilan birga nazariy va amaliy ko'nikma hosil etish maqsadida mashg'ulotlarning bir necha turlari: jumladan, faol va noan'anaviy shakllari tavsiya etiladi.

O'quv jarayonida ma'ruza bilan birlgilikda amaliy mashg'u-lotlardan foydalanish lozim bo'ladi. Ushbu qo'llanmaga kiritilgan barcha ma'lumotlarni pedagogika kollejlarining ta'lim mazmuniga kiritilgan «O'zbek xalq musiqa ijodiyoti» fanida qo'llash tavsiya etiladi.

O'quv qo'llanmaning ilova qismida yillar davomida yaratilgan kuy va qo'shiqlarning notalaridan amaliy foydalanish uchun namunalar keltirilgan.

XALQ MUSIQASINING UMUMNAZARIY MASALALARI

O'zbek xalqi o'z ildizlari bilan qadim-qadim zamonlarga borib taqaladigan musiqa merosi, xilma-xil musiqa janrlari hamda boy tasvir vositalari bilan bizning davrimizgacha yetib kelgan. Bundan tarixiy manbalar, boy va betakror qadimiy obidalar xabar beradi. O'zbek xalq musiqasi yillar davomida o'rganilib kelinmoqda. Masalan, o'zbek musiqa merosini to'plash va nota vositasida nashr etilishida V.M.Uspenskiy, Yunus Rajabiy, Ilyos Akbarov, M.Yusupovlarning mehnatlari beqiyosdir.

O'zbek xalq musiqasini yozib olish va qayta ishlash, ilmiy-nazariy tadqiqot o'tkazishda mutaxassis olimlar, jumladan, etnomusiqa shunoslar – F.Karomatov, R.Abdullayev, S.Begmatov, O.Matyoqubovlarning olib borgan etnografik ekspeditsiya xizmatlari katta.

O'zbek musiqa madaniyati ikki qatlamga bo'linadi:

1. Xalq musiqasi.

2. Og'zaki an'anadagi professional musiqa.

O'zbek musiqa merosining ko'rsatib o'tilgan har ikkala qatlamasi asrlar davomida og'zaki an'ana tarzida, ya'ni nota yozuvlarisiz, og'zaki ijod etish, og'zaki o'rganish va ijro etish orqali yetib keldi. Olimlar musiqa merosining ana shu tabiatini inobatga olgan holda xalq musiqasi folklorining bir turi¹, aniqrog'i – xalq og'zaki ijodi sifatida ta'riflaydilar va unga nisbatan «musiqiy folklor»² tushunchasini qo'llaydilar. Folklor namunalari jonli ijro sharoitida yaratiladi, rivojlanadi, tarqaladi.

Xalq musiqasida har qanday xalq ijodi kabi mehnatkashlarning fikri, orzu-umidlari, ularning turmushi va axloqi gavdalanadi. O'zbek xalq musiqasi mavzu jihatdan serqirraligi, janrlarga boyligi va hayotda tutgan o'rnining xilma-xilligi tufayli ikki guruhga bo'linadi:

1. Ma'lum vaqt yoki ma'lum sharoitdagina ijro etiladigan kuyaytimlar: oilaviy marosim, mehnat qo'shiqlari, mavsumiy marosim kuy-ko'shiqlari, diniy navolar hamda turli tantana, tomosha kabi marosimlarda ijro etiladigan cholg'u kuylari.

¹ O. A. Ibrohimov. «O'zbek xalq musiqa ijodi». Metodik tavsiyalar. Toshkent. 1994. 3-b.

² «Folklor» inglizcha so'z bo'lib, *folk* – xalqlar, donishmandlik, bilimdonlik ma'nolarini anglatadi. Folklor atamasi xalq og'zaki ijodi o'rnida qo'llaniladi.

2. Istalgan vaqtida va har qanday sharoitda, ya'ni barcha joyda ijro etiladigan kuy va qo'shiqlar: o'zbek xalq musiqa janrlari: qo'shiq, ashula, yalla, lapar, qarsak (turli xil) va shunga o'xshash turli cholg'u kuylari. (Barcha ko'rinishdagi xalq janrlariga izoh beriladi.)

Xalq musiqasi tarkibiy sinkretik¹ san'atdir. Bunda so'z, kuy va o'yin mujassamlashgan. Chunki musiqiy folklorda xalq xatti-harakati, xususan, mehnat jarayoni, urf-odatlarga boy marosimlarni o'tkazish uchun ko'rsatib o'tilgan uch unsur (so'z, kuy, raqs) muntazam ravishda bir-biriga aloqadorligida ko'rindi va bu holat sayil va boshqa oilaviy bayram tantanalarida ijro etiladi.

Demak, so'z, kuy va raqs mushtarak holatlarini bir so'z bilan bayon etish maqsadida olimlar «aytim» atamasidan foydalanganlar. «Aytim»² – bu musiqiy folkloarning hozir bo'lish shakllaridan biridir.

Xalq musiqasida «aytim» iborasi bilan birga unga ma'nodosh «kuylash» iborasi ham ko'p qo'llaniladi. Xalq aytimlari keng omma orasida mashhur bo'lib, bu turdag'i ijro jamoa va yakka tartibdagi ijrochilar tomonidan aytildi.


Xalq aytimlarining she'riy tarkibini asosan barmoq vaznli xalq she'riyati tashkil etadi. She'riy misralar odatda so'z bo'g'inlariga qurilgan bo'lib, barmoq bilan sanaladi. Aytib o'tish joizki, misralarda hijo (bo'g'in) va usul mushtarakligi namoyon bo'ladi. Masalan, she'r misralari 4,5,7, 8,9,10,11 va boshqa turoqda bo'lishi mumkin:

a) To'rt bo'g'in – usulli misralar:

1. Choriy, chan-bar.
2. Biriy, an-bar.
3. .| .| .| .|
4. .| .| .| .|

b) Besh bo'g'in – usulli misralar:

1. O'rog'im olmos.
2. O'rimdan qolmas.
3. Sira ham tolmas.
4. O'rmasam bo'lmas.



¹O. A. Ibrohimov. «O'zbek xalq musiqa ijodi». Metodik tavsiyalar. T., 1994. 10-b.

²O. A. Ibrohimov. «O'zbek xalq musiqa ijodi». Metodik tavsiyalar. T., 1994. 40-b.

d) Yetti bo'g'in – usulli misralar:

1. Seni haydab boqaman.
2. Ko'ztumorlar taqaman.
3. .|. .| .|| .|
4. .|. .| .|| .|

Shu tariqa folklor musiqashunoslik sohasida «bo'g'in – usul» tushunchasi qo'llaniladi. Shu bilan birga aytimlarning she'riy asoslarida misralarning ma'lum tartibda qofiyalanishi katta ahamiyatga ega, chunki muntazam va izchil takrorlanuvchi bo'g'in – usulning to'g'ri tuzilishida, aytim namunalarini xotiraga keltirishda ko'makdosh vositadir. She'r misralari a a b a, a b a b, a a b b tartibda qofiyalanib, ularga ma'lum mazmun, uyg'unlik, ohangdoshlik bag'ishlaydi:

1. Turna desam turimli – a
2. Keng dalada qo'nimli – a
3. Turnalar uchsa pastlab – b
4. Rizqing kelar unumli – a

Aytimlarning she'riy tarkibini to'rtlik bo'lgan xalq ruboiylari tashkil qiladi.

Aytimlarning asosiy qismini kuy-ohang tashkil qiladi. Shuningdek, musiqiy folklor namunalarini ijro etish uchun kasbiy ijrochilarga zarur bo'lgan va yillar davomida «usta-shogird maktabi»da o'rgatib kelingan ijro usullari va maxsus malakaga ega bo'lishi talab etilmaydi. Chunki xalq aytimlarining kuy tuzilishlari nisbatan tor ovoz ko'lamida (diapazon) asosan kvarta, kvinta va seksta intervali doirasida kuylashga mo'ljallangan. Kuy – ohanglari, ma'lum iboralari ko'p marotaba takrorlanib hamda davomli usul uzunliklari bilan ajralib turadi.

MEHNAT QO'SHIQLARI

Mehnat qo'shiqlari xalq og'zaki ijodining ibtidoiy shakllaridan biri hisoblanadi. Ularning yuzaga kelishi uzoq o'tmishtga borib taqaladi. Inson faoliyatining turli jahhalari – yer haydash, tegrimon yan-chish, ip yigirish va boshqa ish jarayonida mehnat bilan birgalikda ijod etilib, mehnatkash qalbiga ko'tarinki kayfiyat bag'ishlab kelgan qo'shiqlardir. Hozirgi kungacha mehnat qo'shiqlarining ayrimlari saqlanib kelingan va ular uch guruhg'a bo'linadi:

1. Chorvadorlik qo'shiqlari.
2. Dehqonchilik qo'shiqlari.
3. Hunarmandchilik qo'shiqlari.


Chorvadorlik qo'shiqlari aholining chorvachilik bilan bog'liq turmush tarzi va mehnat jarayoni bilan bog'liq. Ularning bizgacha saqlanib yetib kelgan namunalari asosan sog'im qo'shiqlaridan iborat, ya'ni bu qo'shiqlar uy hayvonlari: sigir, biya, tuya, echkilarni sog'ish jarayonida kuylanadi.

XO'SH-XO'SH

O'zbek xalq qo'shig'i

The musical score consists of six staves of music in common time, with a key signature of four sharps. The lyrics are written below each staff, corresponding to the notes. The lyrics are:

Xo'sh, xo'sh, xo'sh, xo'sh,
ol bo- lang- ni, xo'sh, xo'sh,
pa- qir to'- lib sut ber- sin,
xo'sh, jo- nim, xo'sh, xo'sh,
bor- gan ye- ring o't bo'l- sin,
xo'sh, xo'sh, xo'sh, xo'sh,




Dehqonchilik qo'shiqlari mehnat jarayonida salmoqli o'rinni tashkil etadi. Dehqonchilik qo'shiqlariga oid namunalar mehnat jarayonining turli jabhalarida ijod qilingan. Masalan, yer haydash paytida «Qo'sh haydash», xirmon o'rib olishda «O'rim qo'shig'i», xirmon yanchiganda «Xo'p mayda» yoki «Mayda-mayda» qo'shiqlari aytilgan.

«Qo'sh haydash» qo'shig'i ho'kizga qo'shilgan omochni boshqarib borayotgan dehqon tomonidan kuylanadi.

QO'SH HAYDASH

Notaga oluvchi *N.Toshtemirov*



Ushbu qo'shiq mazmun jihatdan vaziyatga aloqador bo'lib, dehqonning yer haydashi, mehnat mashaqqatlari va hayvonga bo'lган munosabati ko'rsatilgan.

Hunarmandchilik qo'shiqlari mehnat jarayoniga mansub bo'lib, asosan xotin-qizlar tomonidan ijro etiladi. Bu namunalar asosan charx yigirish, do'ppi tikish, gilam to'qish jarayonida ijro etiladi. Chorvadorlik va dehqonchilik qo'shiqlariga nisbatan hunarmandchilik qo'shiqlari keng tarqalgan bo'lib, lirk qo'shiqlarga mansubdir.

Xotin-qizlar mehnat jarayonida, ya'ni gilam to'qish, charx yigirish, do'ppi tikish singari davomli mehnatni bajarish bilan birgalikda shaxsiy hayotlari bilan bog'liq ruhiy kechinma, dard va ichki tuyg'ularini qo'shiqlar orqali izhor qilganlar. Shu bois tuyg'ularga boy lirk hunarmandchilik qo'shiqlari paydo bo'lgan.

CHARX

Notaga oluvchi *N. Toshtemirov*

Char-xim ta-nob tash-lay-di, o'y-nang, yor,
o'y-nang, bir ba-lo-ni bosh-lay-di,
o'y-nang, yor, o'y-nang.

Mehnat qo'shiqlariga quyidagicha ta'rif berish mumkin:

- Mehnat qo'shiqlarida musiqa asbobi jo'rsozlik vazifasini bajarmaydi, ya'ni musiqa asbobi qo'llanilmaydi.
- Kuy ohanglari tor ovoz doirasida kuyylanadi.
- Qo'shiqlar faqat yakkaxon tomonidan ijro etiladi.
- Qo'shiqlarning she'riy tuzilmasi barmoq vaznida bo'lib, bo'g'in – usul asosida ko'rsatiladi.

MAVSUMIY MAROSIM QO'SHIQLARI

Xalq urf-odatlari va an'analari xalqimizning o'zi kabi umrboqiy va jonbaxshdir. Yurtimizning har bir go'shasida o'ziga xos marosimlar, an'analari mavjud. Xalq an'analari va marosimlari jo bo'lgan asriy qadriyatlar ma'naviyat ko'zgusiga aylangan qanotli orzular, folklor ijrochilarining ko'p asrlar davomidagi ijodiy faoliyati natijasida sayqallanib, barkamollahishib kelgan.

Tarixiy manbalarga asoslanib yil fasllari va mehnat mavsumlari haqida folklorshunos olimlarimiz quyidagi ma'lumotlarni bergenlar:

- 1) Bahor faslida – Navro'z bayrami, Sust xotin, Shox moylar, Gul bayrami.
- 2) Yoz faslida – Choy momo.
- 3) Kuz faslida – Hosil bayrami, Oblo baraka, Shamol chaqirish.
- 4) Qish faslida – Yas-yusun, Gap-gashtak kabi qo'shiqlar kuylangan.

Mavsumiy marosim qo'shiqlarining eng ko'p namunalari bahor fasli va undagi marosimlar bilan bog'liq.

Bahor faslining asosiy mavsumiy marosimi Navro'z bayramidir. Navro'z bayramining o'tkazilishi ko'p asrlar davomida qaror topib kelmoqda. Tarixiy manbalardan xabar berilishicha, uzoq o'tmish davomida Navro'z bayrami Sosoniyalar (XI–VI asr) davrida keng nishonlangan.

Sharq mumtoz musiqa tizimining asoschisi Borbad Marvaziyning Navro'z bayramiga bag'ishlangan qo'shiqlari shular jumlasidandir.

Navro'z bayrami munosabati bilan o'tkazilgan marosimlarda bolalar ijodiyoti e'tiborga loyiqidir. Bolalar kattalar qatori marosimlarda qatnashish kelganlar. Shu bois «Boychechak», «Laylak keldi», «Oq terakmi – ko'k terak» kabi bolalar tabiatiga mos o'yin – qo'shiqlar ijod qilingan.

Bahor faslida Sust xotin, Shox moylar, Gul bayrami kabi bir necha marosimlar o'tkazilgan. Shuni ham aytish joizki, bu marosimlar sahnaviy ko'rinishda bo'lib, jamoa tomonidan ijro etilgan. Yillar davomida bu marosimlar o'z mavqeini yo'qtongan bo'lsa-da, ammo ijtimoiy-badiiy tafakkur rivojida ma'lum ahamiyat kasb etib kelgan.

SUST XOTIN

O'zbek xalq qo'shig'i

Sust xo- tin, suz- ma xo- tin, ko'- lan- ka- si
may- don xo- tin, yom- g'ir yog'- dir,
ho'l bo'l- sin, e- lu ja- hon
ko'l bo'l- sin, sust xo- tin, sust xo- tin.

Mavsumiy marosim qo'shiqlari bilan mehnat qo'shiqlari bir-biriga juda yaqinligini bahor fasli yerga hamal kirishi vaqtি, ya'nи dehqonlarning mehnat jarayoni boshlanganligida ko'rish mumkin. Bu mehnatning boshlanishi Shox moylar marosimida ko'rsatilgan. Qishloq ahli yig'ilishib qishloqdagi eng yaxshi ho'kizlardan bir justini omoch-u bo'yinturug'i bilan dalaga olib chiqishadi. Kelayotgan yil yaxshilik, serobchilik bo'lsin, deb ayollar turli pishiriqlar pishirib, ho'kiz shoxlarini pishirilgan pishiriqlarning yog'i bilan moylab, oyog'ing tekkan joyga baraka bersin, deb yaxshi niyat qilganlar.

SHOX MOYLAR

O'zbek xalq qo'shig'i

Qo'sh- ga il- dam yur- ma- sang,

u- chang- ga tur- tib qo'- ya- man.
 Yax- shi yur- sang sho- xing- ga
 moy- lar sur- tib qo'- ya- man,
 Shox- la- ring bor, sho- mi- yon,
 ko'z- la- ring bor oy- na- day...

Mavsumiy marosim kuylarining tuzilishi ko'rsatib o'tilgan mehnat qo'shiqlariga nisbatan murakkab:

- keng hajmli kuylar shakl topishi, ovoz doirasi oktava intervallari qadar ortib borgan;
- qo'shiqchilikning yakkaxon va jamoaviy aytish shakllari tarqalgan boilib, doyra va boshqa urma musiqa asboblari jo'rsozligi keng qo'llanilgan.

OILAVIY MAROSIM QO'SHIQLARI

Insonning hayot yo'li bilan bog'liq oilaviy marosim qo'shiqlari (tug'ilgan kun, to'ylar, motam marosimlari) o'ziga xos urf-odatlar yoki marosimlar bilan nomlanishi an'anaga aylangan.

Oilada farzand tug'ilishidan boshlab uning ulg'ayib katta bo'lguniga qadar turli urf-odatga boy oilaviy marosimlar o'tkaziladi. Masalan, beshik to'yi, sunnat to'yi, muchal to'yi, nikoh to'yi, kelin salom,

motam marosimlari va h.k. Ushbu marosimlar oila davrasida o'tkaziladi. Shuning uchun ular ommaviy xarakterga ega.

Oilaviy marosimlarda kuy va qo'shiqlar alohida ahamiyatga ega. Bunda, ayniqsa, cholg'u musiqasining vazifasini alohida ta'kidlash lozim. Jumladan, to'y marosimi yoki oilada turli vaziyat bilan o'tkaziladigan tadbirlarda karnay, surmay, nog'ora va doyradan iborat cholg'u asboblari ushbu xonadonda yangrab, oilada o'tkazilayotgan marosimdan darak beradi, ya'ni mahallada qaysidir xonadonda to'y yoki xursandchilik bo'layotganligini bildiradi.

Shuni aytish lozimki, bunda qo'shiqlar alohida ijro etilmasdan, urf-odati bilan marosim o'tkazish jarayonida ijro etiladi. Ijro yakka va ommaviy tarzda bo'lib, qo'shiqlarning she'riy mazmunida shaxsiy tuyg'ular mujassamlashadi. Masalan, «Kelin salom» qo'shig'i nikoh to'yi marosimida an'anaviy ijro etib kelinadigan qo'shiqdir. Ushbu qo'shiqni aytish vaziyati kelinni kuyov xonadoniga kelishi bilan yuzaga kelib, kuyovning ota-onasi, qarindosh-urug'lari, qo'ni-qo'shnilariga kelin nomidan ma'lum ohanglarda salom aytib turiladi. Ijrochi ijro jarayonida she'r mazmuniga o'zgartirish kiritadi, ya'ni ushbu xonadonga qarashli insonlarga murojaat etgan holda badiha (tayyorgarliksiz ijro etilgan kuy yoki qo'shiq) ijro etadi.

KELIN SALOM

Notaga oluvchi N. Toshtemirov

The musical notation consists of four staves of music in common time (indicated by '4') and a key signature of one flat (indicated by 'F'). The notes are represented by vertical stems with small circles at the top, indicating pitch. The lyrics are written below each staff, aligned with the corresponding musical notes. The first staff contains the lyrics: Tom-ga ta-yoq tash-la-gan. The second staff contains: mang-la-yi-ni qash-la-gan. The third staff contains: sa-lom, sa-lom, ke-lin sa-lom. The fourth staff contains: qay-no-ta-si-ga sa-lom. The lyrics are in two languages: Russian and English (in parentheses). The music is composed of eighth and sixteenth notes.

Oilaviy marosim aytimlarining yana bir turi – bu motam marosimi, ya’ni «yig‘i» qo’shig‘idir.

«Yig‘i» turli vaziyatda yuzaga keladi, u janr sifatida asosan motam marosimi – azada to‘liq namoyon bo‘ladi. Yig‘i motam marosimi qo’shig‘i hisoblanib, yaqin kishisi, oila a’zolarining vafot etishi bilan bildirilgan chuqur qayg‘u, ichki kechinma va alamli dard kabi tuyg‘ularning insondagi mujassam ifodasidir. Motam marosimi bir yil davom etib, yil davomida shu qo’shiq urf-odatlarni o‘z ichiga olgan holda asosan xotin-qizlar tomonidan aytib turiladi. «Yig‘i» qo’shig‘ida shaxsiy hayot, vafot etgan insonning butun umri bo‘yi olib borgan faoliyati zikr etilganligi sababli ma’lum she’riy qofiyaga ega emas, ko‘proq badiha tarzida ijro etiladi.

YIG‘I

Notaga oluvchi Ilyos Akbarov

Bo'y- la- ri o'- zi- ga ya- rash- gan,
Be- ma- hal ko'- cha- la- ri- din a- dash- gan,
Be- da- vo dard- lar- ga uch- ra- gan...

DINİY NAVOLAR

Xalqimizning musiqa merosida alohida o‘ringa ega bo‘lib kelgan diniy mazmundagi kuy va qo’shiqlar o‘zbek xalqining islom dinini qabul qilishi bilan bog‘liqidir. Diniy navolarda avvalo muqaddas Qur’oni karim sura-oyatlari qiroat bilan ijro etiladi, zeroki kerakli bo‘lgan uslublarda qiroat eta olishga madrasalarda maxsus tayyorgarlik ko‘riladi (usta-shogird uslubi). Shu o‘rinda aytib o’tish lozimki, qiroat yo’llarini nota vositalarida aks ettirib bo‘lmaydi. Chunki ularning serma’no va jozibali ijrosi faqat jonli «o‘qish»da ko‘rinadi.

Binobarin ijro uslublarini o'rgatishda maxsus maktab va madrasalarda ta'lif ko'rgan shogird yillar davomida yuqori maqomni oladi.

O'zbek musiqa merosida diniy navolar o'z o'rniiga ega. Aytim va navolarni mazmuniga ko'ra ikki guruuhga bo'lish mumkin:

1. Diniy marosim kuy-aytimlari.

2. Diniy mavzuli kuy-aytimlar'.

Birinchi guruuhga diniy marosimlarda ijro etiladigan kuy va qo'shiqlar kiradi. Jumladan, ramazon oyida kuylangan «Ramazon» qo'shig'i.

Ikkinchchi guruuhni diniy mavzudagi kuy va qo'shiqlar tashkil etadi. Navoiyxonlik, mashrabxonlik, munojot, yassaviyxonlik, ma'lum darajada maqom yo'llari va katta ashula shular jumlasidan.

RAMAZON

Notaga oluvchi *N. Toshtemirov*

The musical score consists of five staves of music. The lyrics are written below each staff, corresponding to the notes. The first staff has lyrics: U- ra- za- ni uch- ku- ni- ni. The second staff has lyrics: tu- bib kel-dik siz-ga, U- ra-za-ning za- ko- ti- ni. The third staff has lyrics: be- ring biz-ga, yo Ra-ma-zon ay- tib kel-dik. The fourth staff has lyrics: e- shi- gin- giz- ga, Qo'ch-qor-dek o'-g'il ber-sin. The fifth staff has lyrics: be- shi- gin- giz- ga. Sa-lom ay-ting Mu-ham-mad.

¹ O. A. Ibrohimov. «O'zbek xalq musiqa ijodi». Metodik tavsiyalar. T., 1994. 40-b.



QO'SHIQ

O'zbek musiqa merosining ikkinchi qatlamini erkin mavzuli kuy va qo'shiqlar tashkil etadi.

«Qo'shiq» so'zi ikki ma'noda keladi: birinchisi, qo'shiq bu nisbatan kichik ovoz doirasiga ega bo'lib, she'riy tuzilishi barmoq vaznida kelib, qo'sh qofiyalikka ega. Ikkinci ma'noda ovoz bilan kuylash, ya'ni so'z va kuyning birligi.

Bular o'zbek xalq musiqa janrlaridan bo'lib, mazmun xilmalligi, ommabop ijrosi bilan boshqa janrlardan farqlanadi.

Qo'shiqlarda she'rlar qo'sh qofiyada kelib (a a b a, a a b b, a b a b), to'rt misradan iborat ruboilyar ishlatalidi.

Kuy tuzilishi esa mazmunga bog'liq. Chunki qo'shiqlar turli xilma-xil ko'rinishga ega, jumladan, hajviy, tarixiylik bilan birga ko'proq lirik ko'rinishda keladi. Asosiy qo'shiqlarning ovoz doirasini hoyat torligi (kvarta, kvinta, seksta) sababli ijro jarayonida qiyinlik tug'dirmaydi, qo'shiqlar ijrosida ko'proq doyra musiqa asbobi jo'rsozlik qiladi.

Bizning davrimizda sevilib kuylab kelinayotgan «Paranji», «Baland tog' ustida», «Shamol eshik ochadi», «Daryo toshqin» va h.k. qo'shiqlar shular jumlasidandir.

YO'L BO'LSIN

O'zbek xalq qo'shig'i

Tong ot- mas- dan

uy- g'o- nib- di qiz- bo- la,
So-chin ta-rar oy nu- rin to- la - to-
la. Pax-ta- zor- lar mun-ta-zir- dir
yo'- li- ga, Yo'l- la- ri- ga
bosh e- ga- di gul- lo- la. Yo'l bo'l-
sin, yo'l bo'l- sin, qiz bo-
la, Ek- kan pax-tang xal- qi- Miz- ga
gul bo'l- sin, sin.

ASHULA

O'zbek xalq janrlaridan birini ashula tashkil qiladi. Ashula qo'shiqdan farqli o'laroq, o'z rivojlanish diapazonining kengligi, usulning sezilarli darajada o'zgaruvchanligi bilan ajralib turadi.

Ashulaning she'riy asosini xalq she'rlarida barmoq vazni va mumtoz she'rlar tashkil qiladi. She'rlar mazmuni falsafiy ma'noga ega bo'lganligi sababli kuy ohanglari ham murakkablikni talab qiladi.

Ashulaning kuy va she'r tarkibini ko'proq ishqiy-lirik mazmun-dagi she'rlar tashkil qiladi.

Ashulaning eng rivojlangan namunasi kasbiy musiqada katta ashula yoki «Patnis ashula» nomi bilan atalgan.

ARZIMNI AYTAY

O'zbek xalq qo'shig'i

Ar- zim- ni ay- tay
bo- di sa- bo- ga, e,
biz- dan sa- lom deng, do- da,
ul be- va- fo- ga, e.
Ko'z- la- ri cho'l- pon,

zul- fi pa- ri- sho- ne,
 ko'z- la- ri cho'l-
 pon, zul- fi pa- ri- shon,
 Rahm ay- la- may- san, do- da,
 men mub- ta- lo- ga, e.

Ashulaning rivojlangan namunalari hozirgacha kuylanib kelinmoqda, bular: «Tanavor», «Yorginam», «Chaman ichra», «Yaxshilik qil», «Porloq hayotim», «Hayot qo'shig'i» va h.k.

Katta ashula o'z kuyining juda ham rivojlanganligi, diapazonining juda kengligi (ikki yarim, uch oktavaga yaqin), ohang rivojlanishi murakkabligi bilan o'zbek xalq janrlari ichida alohida o'rinn tutadi. Katta ashulada doyra usuli murakkab bo'lib, erkin usul sifatida badiha tarzida kuylanadi. Katta ashulaning ijro etilishi ham o'ziga xos uslubda bo'lib, ikki yoki undan ko'p hamnafas, ya'ni doimo professional xonandalar tomonidan birga ijro etiladi.

LAPAR

O'zbek xalq musiqasining ikkinchi qatlamini tashkil etuvchi lapar ikki kishi tomonidan ijro etiladigan aytimdir. Odatda turli ommaviy marosimlar va katta ommaviy tadbirdarda, ko'proq sayilgohlarda yigit bilan qiz o'ttasida lapar-aytishuv o'tkaziladi. Lapar orqali qiz bilan yigit bir-biriga muhabbat izhor etib, birga ichki tuyg'ularni ifoda etadilar.

Hozirgi kunda kuylanib kelinayotgan laparlarning aksariyati marosimlar bilan bog'liq bo'lmay, bevosita turli oilaviy yig'ilishlarda ijro etiladi. Laparlarda sevgi-muhabbat asosiy mavzuni tashkil qiladi. Ularda hazil-mutoyiba mazmunidagi she'rler aks ettirilgan. Laparda she'r misralari orasida naqarotlar bo'lmaydi. Shu bois ikki kishi tomonidan aytilib, savol-javob asosiga qurilgan.

Lapar kuy-ohanglari nisbatan ixcham va barqaror tuzilmalarga tayangan holda qo'shiq bilan birgalikda raqs ham qo'shilib ketadi.

«Bilaguzuk», «Qoraqosh», «Nima-nima deysiz?» kabi laparlar xalq orasida mashhur bo'lib, kuylanib kelinayotgan laparlardir.

Nihoyatda mashhur bo'lgan «mahalliy laparlar» Xorazm vohasida ijro etiladi. Bu xildagi laparlar qo'shiq janriga yaqin bo'lib, raqsbopligi sababli o'zinining asil holatini saqlab kelgan. «Galdim sana mehmon bo'lib», «Par devol» shular jumlasidan.

BILAGUZUK

The musical notation consists of two staves of Western-style music. The top staff starts with a treble clef, a key signature of one flat, and a common time signature. It features eighth and sixteenth note patterns. The bottom staff follows the same musical structure. Below the notation, the lyrics are written in English:

Suv bo'-yi- da tur- gan yi- git,
qo- shu ko'- zin- o suz-gan yi- git.

YALLA

O'zbek musiqa ijodi serqirraliligi, janrlarga boyligi va hayotda tutgan o'rnining xilma-xilligi bilan farqlanadi. Musiqa va raqs — o'zbek milliy musiqa san'ati xalq hayoti va ijodi bilan chambarchas

bog'liq. Yalla janrida ham xalq hayoti va ijodi yaqqol ko'rindi va o'zbek musiqa janrlari orasida alohida o'rinni egallaydi. Yallada qo'shiq va raqs mushtarakdir. Ana shu xususiyatlari, ya'ni raqsbopligi, raqsning ijro etilishi, ijroda ko'pchilikning ishtirot etishi kabi jihatlari laparga yaqin janr ekanligidan dalolat beradi.

Yalla so'zi o'ynab-kulish, kuylash, xursandchilik qilish ma'nolarini bildiradi. Yallada band-naqarot shakli barqarordir. Bu holat laparlarda ko'rinnmaydi. Chunki laparda naqarot ishlatalmaydi. Yalla ko'proq yakka va jamoa ijrosida qo'llaniladi. Demak, band naqarotni yallachi¹ va jamoa (naqarotchi) navbatma-navbat kuylashadi. Yallada o'ynab-kuylash xususiyati uning she'riy matniga bog'liq. Yengil hazil-mutoyiba bilan barmoq vaznidagi she'rlar yallaga xush kayfiyat baxsh etadi. Naqarotni yanada o'ynab-kulishga chorlovchi «yallo», «yalli» so'zleri boshqaradi. Yallada barcha musiqa asboblari ishlataladi, ijro jarayonida raqsboplikni barqaror ushlashi uchun doyra asosiy jo'rsoz musiqa asbobi hisoblanadi.

Bugungi kunda xalq orasida mashhur bo'lib sevilib kuylanib kelinayotgan «Yallama yorim», «Yallola», «Oho yalli» kabi yallalar bunga misol bo'la oladi.

OLMACHA ANORING

Xalq kuyi

¹ Yallachi – yalla janrida ijro etadigan xonanda. Xalq musiqasida yallachilar so'zi keng ishlataladi.

TERMA

O'zbek xalq musiqa janrlaridan yana birini terma tashkil qiladi. Terma — bu tanlangan, terib olingan, saylangan degan ma'noni bildiradi.

Xalq ijodiyotida ikki ko'rinishdagi termalar mavjud:

1. Baxshi¹, shoir, dostonchi tomonidan ijro etiladigan termalar.
2. Xalq termalari.

Xalq ommaviy yig'inlarida, marosimlarda, turli xarakterdag'i bayramlarda baxshilar chiqishlar qiladilar, ya'ni turli xil dostonlardan qissalar ijro etadilar. Ana shu dostonlarni ijro etishda terma janridan foydalanadilar. Bunda baxshi she'riy to'rtliklar asosida bisotida bor dostonlardan namuna sifatida parchalar aytib o'tadi, bu bilan shinavandaga «Qaysi dostonimni aytib beray?» degan savol bilan murojaat qiladi. Baxshilar 10–15 misradan iborat termalarni aytib, shinavanda tanlangandan so'ng 300–400 misragacha bo'lgan dostonlarni kuylab beradilar. Baxshilar orasida hozirgi kunda «Do'mbiram», «Nima aytay?», «Armonim qolmadi» kabi termalar mashhurdir.

Xalq orasida kuylab kelinayotgan termalar termachilar² tomonidan ijro etiladi.

NAYLAYIN («Avazxon» dostonidan)

Xalq kuyi



¹ O'zbek xalq dostonlari — «Go'ro'g'li», «Alpomish», «Oshiq G'arib va Shohsanam» kabi asarlarni ijro etadigan xonanda va sozandalarga baxshi-dostonchi deb nom berilgan. Shu toifadagi xonandalar maxsus tomoqli ijro uslubiga ega.

² O.Ibrohimovning «O'zbek xalq musiqa ijodi» metodik ko'rsatmalarida «termachi» yoki «termakash» iborasi ishlatalig'an. (O'zbek xalq musiqa ijodi. O.Ibrohimov. T., 1994. 47-b.)



OG'ZAKI AN'ANADAGI PROFESSIONAL MUSIQA

O'zbek musiqa merosida ko'rsatilgan ikki qatlam – xalq musiqasi va og'zaki an'anadagi professional musiqa (kasbiy musiqa) ildizlari qadim zamonlarga borib taqaladi. O'zbek xalq musiqasi (musiqiy folklor) mehnatkashlarning orzu-umidlari, turmush tarzi, ichki tuyg'ularini turli vaziyat, marosim, mehnat jarayonida qo'shiq (aytim) orqali aks ettirgan.

O‘zbek musiqa merosining ikkinchi qatlami to‘g‘risida so‘z yuritar ekanmiz, shuni aytib o‘tish lozimki, og‘zaki an‘anadan professional musiqa yoki kasbiy (ustozona) musiqa xalq orasida ijod qilingan, keyinchalik ijrochilik maktabida tahsil olib, yillar davomida ustaning saboqlarini olgan shogirdning ijrochilik natijasidir.

Og‘zaki an‘anadagi professional musiqa deganda biz albatta maqomlar, murakkab holat rivojlangan qo‘shiq va ashulalarni inobatga olamiz. Maqom san‘ati ko‘pchilik Sharq xalqlari musiqa namunalari kabi musiqa merosi hisoblanadi. Masalan, arablarda «nuba», ozarbayjon xalqlarida «mug‘om», Afg‘oniston xalqida «landay», qozoq, qirg‘iz xalqida «kyuy», hind va Pokiston xalqlarida «rog» va Kashmir maqomlari, o‘zbek va tojik xalqlarida maqomlar musiqiy meros bo‘lib, asrlar davomida qaror topib kelgan.

Musiqashunos olim I. Rajabov maqomlarning nazariy va amaliy asoslарини tahlil qilib, katta ijodiy izlanishlar olib borib, quyidagi fikrlarni bildirgan: «Maqomlar ma'lum tartibda yaratilgan turkumli majmua bo‘lib, bastakorlik ijodiyotining o‘ziga xos sayqal berilgan turidir. Maqomlar keng ma'noda xalq musiqasining qomusidir». Albatta maqomlarda² musiqa va unga xos bo‘lgan xususiyatlar, kuy, ohanglar, usul va she‘r matni chambarchas bog‘langan bo‘lib, ijro uslubida bir qator qonun va qoidalar mujassamlashgan.

«G‘iyos ul-lug‘at» qomusining muallifi G‘iyosiddin maqom iborasini quydagicha ta’riflaydi: «Maqom deb, kuy va ashulalar pardasiga aytildi»³. Tarixiy manbalardan bizga ma'lumki, IX–XV asrlarda yashab ijod qilgan al-Kindi, al-Forobi, al-Xorazmiy, Ibn Sino, Urmaviy, Sheroziy, Husayniy kabi buyuk olimlar o‘z risolalarida maqomlarning tarixiy-nazariy tomonlarini chuqur ilmiy asosda izohlab berganlar.

O‘tmishdagi musiqiy-nazariy risolalarda o‘n ikki maqom haqida mulohaza yuritiladi.

Temuriylar⁴ davridan boshlab maqomlarning rivojlanib borishi adabiy, tarixiy va badiiy manbalarda o‘sha davrda sozanda-xonandalarning ijro mahorati va bastakorlarning yaratgan kuy va ashulalar nomlari bilan keltirilgan.

XVI – XVII asr musiqashunoslari – Najmiddin va Darvesh Ali Changiy risolalarida ham o‘n ikki maqom to‘g‘risida

¹ I. Rajabov. «Maqom asoslari». T., 1992. 6-b.

² Maqom atamasi arabcha so‘z bo‘lib, «joy, o‘rin, makon» ma’nolarini bildiradi. Musiqada linayli parda tonallikda boshlanadigan kuy yoki ashula yo‘lidir.

³ I. Rajabov. «Maqom asoslari». T., 1992. 6-b.

⁴ I. Rajabov. «Maqomlar masalasiga doir». T., 1963.

ma'lumotlar keltirilgan. Yillar davomida o'n ikki maqom namunalari to'g'risida musiqashunos olimlar ko'p tadqiqotlar o'tkazib kelganlar. Hozirgi kunda o'zbek musiqa merosida asosiy o'rinni egallagan Shashmaqomning dastlabki namunalari nota yozuvlari bo'Imaganligi uchun bizning davrimizgacha yetib kelmagan va albatta Shashmaqom asosida o'n ikki maqom borligidan ularning bizgacha yetib kelgan nomlari dalolat beradi. O'n ikki maqom-larning quyidagi nomlari tarixiy manbalarda zikr etib kelingan: «Ushshoq», «Navo», «Bo'saliq», «Rost», «Husayniy», «Hijoziy», «Rohaviy», «Zangula», «Iroq», «Isfaxon», «Zirafkand», «Buzruk».

Maqom san'ati o'zbek musiqa merosining eng sermahsul, falsafiy-estetik hamda nazariy-amaliy qismlarga ega bo'lgan qatlamidir. Maqom san'atining asosiy qismini Shashmaqom tashkil qiladi.

Shashmaqom (olti maqom) Buxoro shahrida maqomdon sozanda va xonandalar ijodida shakllangan. Shashmaqom saroy sharoitida ijro etilgan, rivojlangan bo'lib, o'z ichiga quyidagi qismlarni oladi:

1. Buzruk (katta, ulug').
2. Rost (to'g'ri, haqqoniy).
3. Navo (ohang, kuy).
4. Dugoh (ikki parda).
5. Segoh (uch parda).
6. Iroq (mamlakat nomi).

Maqomlarning har biri yirik shakldagi turkum asar bo'lib, 20 dan 45 tagacha bo'lgan katta va kichik hajmdagi maqom yo'llarini o'z ichiga oladi.

Maqomlarning ijrochilik uslublari to'g'risida aytib o'tadigan bo'lsak, hozirgi kunda to'rtta asosiy mahalliy uslublar mavjud. Bu Farg'ona-Toshkent, Xorazm, Buxoro-Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo. Ushbu mahalliy uslublar qadimdan etnik yaqin, lekin maqomlarni ijro etish uslublari turlicha, jumladan, Buxoro, Samarqand vohasida Shashmaqom qismlari ko'proq ijro etiladi. Xorazmda esa Xorazm maqomlari, vodiy vohalarida Farg'ona-Toshkent maqomlari barqarordir.

Maqom ijrochilarini yillar davomida usta-shogird uslubida o'rganib, keyinchalik maqom mifikini tashkil qiladilar.

Mahalliy uslublar ham maqom maktablarida turlicha o'rgatiladi. Hozirgi kunda maqomchilar ijro yo'nalishi ijro jarayonida yaqqol ko'rindi.

Maqomlarda asosiy musiqa asbobi tanbur hisoblanadi, doyra musiqa asbobi esa hamisha maqomlarning usulini ushlab turishga yordam beradi.

Biz aytib o'tgan Shashmaqomda tanbur yetakchi musiqa asbobi hisoblanadi.

Shashmaqom murakkab musiqa asari bo'lib, uning ichki tuzilmasi quyidagicha:

1. Cholg'u bo'limi (mushkilot).
2. Ashula bo'limi (nasr).

SHASHMAQOMNING CHOLG'U BO'LIMI – «MUSHKILOT»

Shashmaqomda cholg'u bo'limi alohida o'ringa ega. Cholg'u bo'limi «mushkilot» deb nomlanadi. «Mushkilot» — «qiyinchiliklar», «og'irlik» degan lug'aviy ma'noni anglatadi. Maqomning birinchi bo'limida shu maqomga mansub barcha cholg'u kuylari o'rinni olgan. Ular qator yirik hajmli hamda nisbatan ixchamroq asarlardan tarkib topadi. Cholg'u bo'limi quyidagi qismlardan iborat:

Tasnif — «sinflashgan», «tabaqalashgan», «yaratilgan» ma'nolarni bildiradi. Bu qism mushkilot bo'limida asosiy qismni tashkil qiladi. Tasnif qismida butun maqomning bosh cholg'u vazifasi yuklanadi.

Tarji' — «qaytarish», «naqarot» ma'nolarini bildiradi. «Tarji» mushkilot bo'limining ikkinchi qismi hisoblanadi. Tarjida doyra usuli joriy etilmagan, tasnifning doyra usulidan foydalaniladi.

Gardun — «osmon», «falak», «aylana» ma'nolarini bildiradi. Gardun mushkilotning uchinchi qismi hisoblanadi va alohida doyra usuliga ega.

Muxammas — «beshlik», «beshlangan» ma'nolarini bildiradi. Mushkilot bo'limida u to'rtinchi qismni tashkil qiladi. Muxammas o'ziga xos hajman katta doyra usuliga ega, shu bois, bu qism qolgan qismrlarga qaraganda murakkab hisoblanadi.

Saqil — «og'ir», «qiyin» ma'nolarini bildiradi. Saqil cholg'u bo'limida yakunlovchi qism hisoblanib, hajm jihatidan murakkab doyra usuliga ega.

Cholg'u bo'limining har bir qismi maxsus shaklda tuzilgan. Bular «xona» va «bozgo'y» nomi bilan mashhur.

Xona — «uy-joy» ma'nosini bildiradi. Bu qism cholg'u bo'limida asosiy rivojlanuvchi qism hisoblanib, band vazifasini bajaradi.

Bozgo'y — «qayta aytish» ma'nosini bildiradi. Bu cholg'u kuyining rivojlanish jarayonidagi ma'lum takroriy tuzilmasi hisoblanib, naqarot vazifasini bajaradi.

SHASHMAQOMNING ASHULA BO'LIMI – «NASR»

Shashmaqomning ashula bo'limi «nasr» deb nomlanadi. Nasr – «ko'mak», «yordam», «zafar», «g'alaba», «sochma asar» ma'nolarini bildiradi. Nasr ikki guruhga bo'linadi:

Cholg'u bo'limidan keyingi «nasr» deb ataladigan ashula bo'limi xilma-xil, katta va kichik, sodda va murakkab ashula namunalaridan tashkil topadi:

